

**YOSHLAR XULQIDA SALBIY ILLATLARNI BARTARAF
ETISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI**

Muhiddinova Shahnoza Iso qizi

Buxoro tuman 43-umumtalim maktabi amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA: *Hozirgi kunda yoshlar o`rtasida xudbinlik va shuxratparastlik keng yoyilib bormoqda. Bularning oqibatlari ham yaxshilik bilan tugamayabdi. Shuxratparastlik va xudbinlik biznes olamiga ham, virtual olamga ham umuman olganda hamma joyga o`z ta`sirini o`tkazmasdan qolmayabdi. Ko`proq natijalarga erishish uchun harakat qilgan insonni ham shuxratparast deyish mumkin.*

Kalit so`zlar: xudbinlik, olivjanoblik, manfaatparastlik, shaxsiyarparastlik, ijtimoiytarmoqlar, ommaviy axborot vositalari

KIRISH

Inson atrofidagi yaqinlarini, do`stlarini o`zidan past darajada deb qaramasalar bilan har doimgidek muloqotda bo`lsa bunday insonlarni shuxratparast deyish mumkin emas. Agarda yuqoriqoq martabaga erishgandan keyin o`zini hammadan ustun deb bilgan insonlar haqiqiy shuhratparast va xudbin inson bo`ladi. Shuhratparastlik-bu shon-shuxratortidan ergashayotganda namoyon bo`ladigan axloqiy illatdir. Shuhratparast insonlar doimo jamiyat va atrofdagilar diqqatmarkazida bo`lishga, o`zini boshqalardan ustun qo`yishga va mashhurlikka erishishga intiladi. Bunday insonlar manman va maqtanchoq bo`lishadi. Shuhratparastlik mag`rurlik, o`zini o`zi o`ylash, tajavvuskorlikda namoyon bo`ladi.

Shuhratparastlikning axloqiy illat sifatidagi xatarli tomoni shundaki, u ravnaq topib borish xususiyatiga ega: dastavval kishi o`z «men»ining boshqa «men»lardan kam bo'lmasligini talab qiladi, keyin asta-sekin o`z «men»ining barcha «men»lardan baland turishini xohlab qoladi va nima qilib bo`lsa ham shu xohishni

amalga oshirishga intiladi. Natijada u mavjud veqelikni, atrofdagilarning o'ziga bo'lgan asl munosabatini real baholay olmaydi; qaerda uni «ko'tar-ko'tar» qilib maqtashsa, o'sha erga o'zini uradi, hayot asl insoniy vazifasini bajarishdan chalg'iydi, tuzatib bo'lmas xatolarga yo'l qo'yadi. Shuhratparastlikka yorqin misol, umumbashariy timsol sifatida, odatda salkam 2,5 ming yildan buyon Herostratning nomi keltiriladi: u abadiy shuhrat qozonish uchun olamning etti mu'jisidan biri - Efes shahridagi Artemida ibodatxonasida o't qo'yan. Uning nomi hozirgacha taajjub, hayrat, ayni paytda nafrat va la'nat bilan tilga olinadi .

“Shuhratparastlik - shon-shuhrat ketidan quvadigan va bu yo'lda harqanday axloqsizlikdan qaytmaydigan insonlar toifasining xislati. Shuhratparast odam o'z nominmg doimo atrotdagilar va jamiyat diqkat markazida turishiga, shov-shuvga, maqtovga ichki bir tiyiqsiz ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj oxir-oqibat uni jamiyatning axloqiy-ijtimoiy talablari bilan ham, indivisiatiagioz biologic va ma'naviy-intellektual imkoniyatlari bilan ham mutlaqo hisoblashmaydigan ijtimoiy nafs bandasiga aylantirib qo'yadi”.

Xudbinlik o'z individual ehtiyojlarini hamma narsadan yuqori qo'yadigan axloqiy sifat, illatni anglatuvchi tushuncha; biror - bir insonning moddiy - maishiy manfaatlarining boshqalarnikidan ustun qo'yilishini bildiruvchi manfaatparastlikdan va o'z shaxsini mutlaqlashtirishiga qaratilgan shaxsiyatparastlikning ba'zi unsurlaridan iborat salbiy xatti-harakatlar majmu'idir. U sharqona jo'mardlik axloqiy tamoyili va insoflilik meyo'rining aksi: agar jo'mardlik, ko'rib o'tganimizdek, biror shaxs, jamoa yoki jamiyat baxti, farovonligi yo'lida kishining hatto o'ziga eng zarur bo'lgan narsalardan ham voz kechishiga tayyor turishini anglatsa, xudbinlik o'z manfaatlari yo'lida, hech kimni, hech bir jamoani, hech qanday jamiyatni tan olmaydigan salbiy me'yor egasining bo'rtib ko'zga tashlanadigan xususiyati. Xudbinlikni inson shaxsining o'ziga bo'lgan muhabbat bilan chaplashtirmaslik lozim. Biz Imam G'azzoliy muxabbatning besh turi haqida so'z yuritib, insonning o'ziga, o'zining a'zolariga, salomatligiga bo'lgan muhabbatini birinchi o'rniga qo'yganini yaxshi bilamiz. Uningcha, bu muxabbat

Alloh, ota-onas, qarindosh-urug', do'stbirodar, muhtoj-ehtiyojmandlar xizmatida bo'lishga imkon yaratuvchi vosita hisoblanadi. Xudbinlik esa muhabbat hissiga emas, nafsga, hirsga, rujuga asoslanadi, o'ziniadolatsizlik, insofsizlik va berahmlik xislatlarida namoyon etadi. To'g'ri, hammaning ham qo'lidan jo'mardlik kelavermaydi, lekin insonning o'ziga bo'lgan muhabbat, boshqalarning ham o'ziga shunday muhabbat borligini inkor etmasligi kerak. Shu qoida buzilgan joydan xudbinlik boshlanadi. Xudbinlik jinoyat emas, xudbin odam qonunni buzmaydi, aksincha doimo qonun oldida «toza», “faqat qonuniy haqi»ni qanday sharoitda bo'lmasin - birovlarining fojeasi ustidami, o'limi, - qat'i nazar, undirib oladi, xolos. Uning aqidasi: «Go'zal bino qulasa-qulayversin, men o'zimga tegishli yuzta g'ishtni sug'urib olishim kerak!»

Shuni afsus bilan qayd etish keraki, xudbinlik ustidami jamiyatda ko'payib borsa-borayaptiki, kamaymayapti. Chunki qonunning mustahkamlanib borishi xudbin odamlar uchun qulaylik tug'diradi: ular qonunning ruhini - mohiyatini bir chetga surib qo'yib, uning jumlalaridan - shaqlidan foydalanadilar. Avvalgi, an'anaviy urfodatlar hukumron davrlarda xudbin odam jazolanishi - bir chetga chiqarib qo'yilishi, jamoadan, mahalladan haydalishi mumkin edi. Endilikda bunday munosabat erkin shaxs huquqlarini paymol qilish, noqonuniy yondashuv deb hisoblanadi. Demak, xudbinlikni yo'qotishning faqat bir yo'li bor, u ham bo'lsa jamiyatda axloqiy tarbiyani zamonaviy tarzda keng joriy etish.

Xudbinlik- salbiy axloqiy sifat deb qaraladi ya`ni bunday insonlar o`zmanfaatlarini boshqalarnikidan ustun qo`yadi. O`z maqsadlariga erishishda hechnarsadan bosh tortmaydi. Xudbinlik manfaatparastlik va shaxsiyatparastlikni o`z ichiga oladi. Shu o`rinda aytib o`tadigan bo`lsam xudbinlik oliyjanoblikning teskari shaklidir.

Xudbinlik nafsga va xirsga asoslanadi. Oliyjanoblik hammanining ham qo'lidan kelavermaydi. Bunday insonlar o`zini qay darajada hurmat qilsa boshqalarni ham shunday hurmat qiladi. Yani hammani o`zi bilan teng biladi. Shuning uchun ham oliyjanoblik hammaning ham qo'lidan kelavermaydi.

O'zbekiston xalq shoiri, axloqshunos olim A.Sher xudbinlikka shunday tar'if beradilar: "U o'z individual ehtiyojlarini hamma narsadan yuqori qo'yadigan axloqiy xislat illatni anglatuvchi tushuncha; biror-birin insonning moddiy-maishiy manfaatlarining boshqalarnikidan ustun qo'yilishini bildiruvchi manfaatparastlikdan va o'z shaxsini mutlaqlashtirishiga qaratilgan shaxsiyatparastlikning ba'zi unsurlaridan iborat salbiy xatti-harakatlar majmuyidir. U sharqona jo'mardlik axloqiy tamoyili va insoflilik me'yorining aksi: agar jo'mardlik, ko'rib o'tganimizdek, biror shaxs, jamoa yoki jamiyat baxti, farovonligi yo'lida kishining hatto o'ziga eng zarur bo'lgan narsalardan ham voz kechishiga tayyor turishini anglatsa, xudbinlik o'z manfaatlari yo'lida, hechkimni, hech bir jamoani, hech qanday jamiyatni tan olmaydigan salbiy me'yor egasining bo'rtib ko'zga tashlanadigan xususiyati". Xudbinlik haqida donishmand Muhammad Javhar Zamindor shunday deydi: "Xudbinlik insonga zavollik keltiradi. Kimki xudbin bo`lsa xalq nazaridan qoladi. Ey aziz agar sen inson bo`lay desang xudbin bo`lma, yo`qsa sen o`z joningni xatarga tashlagan bo`lasan. Agar sen ulug`likni hohlasang, kamtarlik yo`lini tut".

Shuhratparastlik va xudbinlik bir – biriga o`xhash illatlardir. Buni biz yuqorida keltirilgan ta`riflardan ham bilishimiz mumkin. Bugungi kunda shuhratparastlikning ildiz otib ketishida ommaviy axborat vosita (OAV)larining o'rni katta bo`lyabdi. Ya`ni ijtimoiy tarmioqlardan insonlar o`zmaqsadlarida, noto`g`ri yo`llarda foydalanishayabdi. Asosan bunaqa insonlarning ko`pchiligini yoshlar tashkil qiladi. Bugungi asr tili bilan aytganda yoshlar istagram ,tik tok, fasebook va you tube kabi ilovalarda o`zlarining har xil videolari bilan chiqmoqda. Bundan ko`zlangan maqsad o`zobunachilari va kuztuvchilarini ko`paytirish, va bularning ortidan mo`may pul topish va shunga o`xhash yoshlar o`rtasida birinchilikka chiqish deb aytish mumkin. Bunday xolatlarni zamonaviy shuxratparastlik va xudbinlikning ko`rinishlaridan biri deyish mumkin. Afsuski, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarni cheklab qo'yishning iloji yo`q. Shuning uchun ham yoshlar o`rtasida bunaqa illatlar ko`payib ketmoqda.

Shuhratparastlik inglizlar talqinida ijobiy hususitatga egadir. Ularda inson biror natijaga erishish uchun shuhratparast bo`lish kerek deb bilishadi. Bizda esa shuhratparastlik gunohkorlik sifatida talqin etiladi. Hadislarda ham shuhratga moyillik minnat bilan barobar gunoh sifatida kiritilgan. Imom al Buxoriyning “riyo va shuhratparastlik haqida” hadisida shunday deyiladi: Jundub roziyallohu anhu rivoyat qiladi:”Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: “kimda kim hayrli ishlarini shuhrat topmoq niyatida ovoza qilsa, Alloh taolo ham qiyomatda uni sharmanda qilib, ovoza qiladi, kimda-kim xayrli ishlarini odamlar meni ko`rib qo`ysinlar deb ko`z - ko`zqilsa, Alloh taolo ham qiyomatda uni barcha bandalari o`rtasida izza qiladi”, dedilar”. Ushbu hadisdan ham bilishimiz mumkinki shuhratparastlik yaxshi illat emasligini.

XULOSA

Shuxtarpastlik va xudbinlik axloqiy jihatdan yomon illat ekanligini va insonlar ongini zarazli g`oyalar bilan chag`itishini kuzatish mumkin. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki: Shuhratparastlik ham xuddi xudbinlik kabi zamonaviy jamiyatda avj olgan illatlardan hisoblanadi. Agar xudbinlikning keng yoyilishiga ma'lum ma'noda shaxs erkinligining qonuniy muhofazasi, ba'zi, demokratik tamoyillar yo'l ochib bersa, shuhratparastlik uchun zamonaviy ommaviy axborot vositalari ko'k chiroq vazifasini o'taydi: Nittsshe aytganidek, hozirgi paytda har qanday kichkinagina «men», yo'lini topib, sahnadan, sahifadan yoki ekranidan o'zi haqida jahonga jar solish huquqiga va imkoniga ega Matbuot va so'z erkinligidan «o'ziga xos» foydalanadigan, «mashhurlar» haqidagi shovshuqlar bilan shug'ullanadigan o'nlab gazetalar, ko'rsatuv va eshittirishlar shuhratparastlarning yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlardek paydo bo'lishini ta'minlamoqda. Misol tariqasida ko'pchilik omaviy axborot vositalarida aslida horijiy mualliflar musiqalarini, qo'shiqlarini noqonuniy o'zlashtirgani - o'g'irlagani (plagiat) uchun jazolanishi kerak bo'lgan shuhratparast «san'atkorlar»ning ko'klarga ko'tarilishini keltirish mumkin. Shuhratparastlikning bunday keng yoyilishiga qarshi faqat axloqiy tarbiya vositasida kurashish qiyin, shu sababli

ularga nisbatan axloqiy yo'l bilan birga ichki va xalqaro huquq me'yorlaridan ham unumli foydalangan holda kurashish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, axloqiy me'yorlar bir-biri bilan shu darajada chambarchaski, ba'zan birini ikkinchisidan aniq ajratish qiyin, zero ular xulq va odob doirasidagi axloqiy hatti harakatlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Sher Axloqshunoslik. Darslik. T. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.

2010. 282-bet

2. Шеров А. Ахлоқшунослик. Тошкент.: ЎАЖБНТ - Янги аср авлоди, 2007.189bet

3. Abdulla Sher Axloqshunoslik. Darslik. T. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.

2010. 289-bet